

## ISTIROHAT BOG'LARI VA XIYOBONLARDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Halimov Isroil Savriyevich*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*

*Magistratura tinglovchisi, mayor*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada istirohat bog'lari va xiyobonlarda jamoat tartibini saqlash haqida so'z boradi. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, jamoat joylari, istirohat bog'lari, xiyobonlar, me'yoriy hujjatlar.

**Аннотация:** В данной статье говорится об обеспечении общественного порядка в парках и проспектах. Также обсуждаются особенности обеспечения общественной безопасности.

**Ключевые слова:** общественный порядок, общественная безопасность, общественные места, парки, проспекты, нормативные документы.

**Annotation:** This article talks about ensuring public order in parks and avenues. The features of ensuring public safety are also discussed.

**Keywords:** public order, public safety, public places, parks, avenues, regulatory documents.

Bugungi globalashuv va jadallashuv sharoitida jamoat tartibini saqlash, xavfsizligini ta'minlash, favqulotda xolatlarni oldini olish, eng avvalo mamlakatda, uning ma'muriy hududlarida, qolaversa, dunyoda, yon atrofimizdagi davlatlarda sodir bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlar bilan bog'liq holda jamoat xavfsizligi holatiga ta'sir etuvchi qonuniyatlar va omillarni doimiy ravishda monitoring hamda tahlil qilib borish, shuningdek, uning natijalaridan unumli foydalanish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday faoliyatning asosida tushunchalar tizimi yotadi. Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini batafsil o'rganish, avvalo, "jamoat tartibi" mazmunini yoritib o'tishni talab qiladi. Tahlillar natijasi "jamoat tartibi" tushunchasiga biron bir normativ-huquqiy hujjatda ta'rif berilmaganini ko'rsatadi. Bu borada ayrim tadqiqotlarda "jamoat tartibi – bu jamoat xavfsizligi, jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatishi, mehnat qilishi va dam olishi uchun sharoit yaratishga, sha'ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilishga yo'nalshtirilgan huquqiy va ijtimoiy-axloqiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi" deb ta'riflangan.

Huquqiy tuzilma “jamoat tartibi” – bu, ehtimol, barcha ijtimoiy fanlar va huquqiy normalar tomonidan qo‘llaniladigan ijtimoiy-huquqiy toifalardan biridir. Demak, masalan, T.Gobbs fuqarolik dunyosini eng katta ijtimoiy ne‘mat deb hisoblab, uni aslida jamoat tartibi deb tushungan.

Davlat o‘zining huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirar ekan, butun hududda aholining hayotini tashkil qiladi, shu bilan birga, birinchi navbatda jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan joylarda: istirohat bog‘larida, hiyobonlarda, ko‘chalarda, maydonlarda, vokzallarda, savdo markazlarida va hokazolarda qonun va tartibni ta‘minlaydi, ya‘ni, bu yerda odamlarning “kollektiv bo‘lmagan” xatti-harakatlari shaxsga tahdidlarni keltirib chiqaradi va nizolar paydo bo‘ladi. “Tartib”, “xavfsizlik”, “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalarining ahamiyati shundan iboratki, ular huquqni muhofaza qiluvchi bo‘lib, o‘z mohiyatiga ko‘ra birgalikda aholi bilan birga davlatning muhim belgilaridan biri hokimiyat va hududni tashkil qiladi.

Jamoat tartibi deganda mohiyatan ma‘lum bir jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy normalar bilan davlat tomonidan tartibga solinadigan, tashkil etilgan va qo‘llab-quvvatlanadigan butun tizim, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi tushunilgan. Keng ma‘noda jamoat tartibi ma‘lum bir tarzda tartiblangan ijtimoiy munosabatlar tizimini (majmuyini) o‘z ichiga oladi: iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axloqiy va hokazolarni, shu munosabat bilan uni konstitutsiyaviy tuzum doirasidagi jamiyatdagi shaxslarning xulq-atvori qoidalari majmuyi sifatida belgilash mumkin.

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini ta‘minlash tizimida keng ko‘lamli demokratik islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Demokratiyaning asosiy talabi bo‘lgan inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, so‘z va vijdon erkinligini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, jamoat xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta‘minlash maqsadida 2021-yil 26-mart sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-27-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon asosida “O‘zbekiston

Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” va “2022 – 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi” kabi muhim hujjatlar tasdiqlanib, bu bordagi ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tartibi belgilandi.

B.P.Kondrashovning aytishicha, “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi”ni keng ma’noda ijtimoiy normalarga, ya’gi huquq normalari, axloq, urf-odatlar, an’analarga rioya etish natijasida vujudga kelgan, daxlsizligi davlatning butun siyosiy tizimi tomonidan kafolatlangan ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Shunday qilib, “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” so‘zining keng ma’nosida jamiyatda mavjud bo‘lgan, ijtimoiy normalarga, shu jumladan huquq normalari va jamiyat qoidalariga muvofiq rivojlangan munosabatlarning butun tizimi tushiniladi. Biroq, jamoat tartibini keng tushunish bilan uning tushunchasi mohiyatan huquq tartiboti tushunchasi bilan birlashadi. Ayni paytda bu tushunchalarning mazmuni bir-biridan qisman farq qiladi. Bir tomondan, qonun ustuvorligi jamoat tartibining faqat bir qismidir, chunki jamoat tartibi nafaqat huquq normalari, balki boshqa ijtimoiy normalar: axloq, madaniyat, din bilan ham tartibga solinadi.

“O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida qayd etilishicha, jamoat tartibini saqlash sohasida sodir etiladigan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolati ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Milliy gvardiyaga berilishi qonun bilan mustahkamlandi.

Makur islohotlar samarasi o‘laroq, jamoat joylarida, xususan, istirohat bog‘lari va xiyobonlarda o‘tgan davr ichida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli va tizimli islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Bugungi kunda 2017-yilga nisbatan jinoyatlar soni 12 mingga kamaygani, joriy yilning olti oyi yakuniga ko‘ra esa, mavjud 9 ming 251 ta mahalladan qariyb 50 foizida bironta ham jinoyatga yo‘l qo‘yilmaganini alohida ta’kidlash lozim. Bu albatta islohotlarimizning ijobiy samarasidan dalolat beradi va bu ishlarimizni izchil davom ettirishni taqozo etadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, istirohat bog‘lari va xiyobonlarda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari shundan inoratki, avvalo, mazkur tizimda huquqiy va tashkiliy-taktik asoslarini takomillashtirish jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga qarshi qaratilgan g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish kabi faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun imkon beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlar va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi PF-27-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'RQ-647- son qonuni.
3. "Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug'ati".
4. A.F. Joldasov. Jamoat xavfsizligi: tushunchasi, ta'rifi va o'ziga xos xususiyatlari.
5. F. Joldasov Jamoat tartibi: tushunchasi, ta'rifi va o'ziga xos xususiyatlari//Academic research in educational sciences. 2022.

**ELEKTRON MANBALAR:**

1. <https://lex.uz>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/zhamoat-tartibi-tushunchasi-tarifi-va-ziga-hoshususiyatlari>